



OCHILDIMUROD MIRIY DOSTONCHILIKDAGI USLUBIY IZLANISHLARI:
OCHILDIMUROD MIRIY HAYOTI VA ADABIY MEROSI

Ahmadaliyev Sardorbek Zafarjon o'g'li

Qo'qon davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 2- bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi Turkiston ijtimoiy-adabiy muhitining taniqli vakili, shoir, tarjimon va xattot Ochildimurod Miriyning hayoti, ijodiy merosi va dostonchilikdagi uslubiy izlanishlari tadqiq etilgan. Muallif Miriy ijodining shakllanish omillari, Buxoro va Samarqand madrasalari muhitining uning dunyoqarashiga ta'siri hamda adib ijodidagi janrlar rang-barangligini yoritib beradi. Maqolada shoirning "Ra'no va Zebo", "Qissai Salim Javhariy", "Rustam va Suhrob", "Majdiddin va Faxruniso" kabi dostonlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, shuningdek, uning lirika va hajviyotidagi ma'rifatparvarlik tamoyillari tahlil qilingan. Bundan tashqari, jadid adabiyotshunosligi va zamonaviy tadqiqotlar talqini asosida Miriyning mumtoz an'analar va yangi davr adabiy tafakkuri (jadidchilik) o'rtasidagi ko'priki, milliy uyg'onish jarayonining dastlabki asoschilaridan biri sifatidagi o'рни xolis va o'ziga xos baholangan.

Kalit so'zlar: Ochildimurod Miriy, dostonchilik, uslubiy izlanishlar, Turkiston adabiy muhiti, mumtoz an'ana, Alisher Navoiy ta'siri, ma'rifatparvarlik, hajviyot, jadidchilik, tarixiy, badiiy talqin, meros, yo'nalish, uslub.

Аннотация: В данной статье рассматриваются жизнь, литературное наследие и стилистические новшества в эпической поэзии (дастане) Очильдимурода Мирия, видной фигуры в социально-литературной среде Туркестана второй половины XIX века. Автор исследует основополагающие факторы творчества Мирия, влияние медресе Бухары и Самарканда на его мировоззрение, а также жанровое разнообразие его произведений. В исследовании анализируются идеологические и художественные особенности эпических произведений поэта, включая «Рано и Зебо», «Киссай Салим Джавхари», «Рустам и Сухроб» и «Мадждиддин и Фахрунисо», а также образовательные и просветительские принципы, заложенные в его лирической поэзии и сатирах. Кроме того, на основе интерпретаций джадидской литературной критики и современных исследований, статья объективно оценивает ключевую роль Мирия как моста между классическими традициями и современной литературной мыслью (джадидизмом), утверждая его как одного из первых пионеров.

Ключевые слова: Очильдимурод Мирий, эпическая поэзия (дастан), стилистические нововведения, туркестанская литературная среда, классическая традиция, влияние Алишера Навои, Просвещение, сатира, джадидизм, историко-художественная интерпретация.

Abstract: This article examines the life, literary heritage, and stylistic innovations in the epic poetry (dastan) of Ochildimurod Miriy, a prominent figure in the socio-literary environment of Turkestan during the second half of the 19th century. The author explores the foundational factors of Miriy's creativity, the



influence of the Bukhara and Samarkand madrasa environments on his worldview, and the generic diversity of his works. The study provides an analysis of the ideological and artistic features of the poet's epics, including "Rano and Zebo," "Qissai Salim Javhariy," "Rustam and Sukhrob," and "Majdiddin and Fakhruniso," alongside the educational and enlightenment principles in his lyric poetry and satires. Furthermore, based on interpretations from Jadid literary criticism and contemporary scholarship, the article objectively assesses Miriy's pivotal role as a bridge between classical traditions and modern literary thought (Jadidism), establishing him as an early pioneer

Keywords: Ochilmurod Miriy, epic poetry (*dastan*), stylistic innovations, Turkestan literary environment, classical tradition, influence of Alisher Navai, enlightenment, satire, Jadidism, historical-artistic interpretation.

KIRISH

Ochilmurod Ne'matullo o'g'li Miriy 1839-yilda Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on shahri yaqinidagi Eshonqishloq mavzesida dehqon oilasida tavallud topgan. XIX asrning ikkinchi yarmi – Turkiston madaniy hayotida murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar kechgan bir davr bo'lib, Miriy ana shu muhitda voyaga yetgan. Uning bolalik yillari xalq og'zaki ijodi, diniy-ta'limiy muhit va mumtoz adabiyot an'analari bilan uzviy bog'liq holda o'tgan.¹

Boshlang'ich savodni qishloq maktabida chiqargach, Kattaqo'rg'ondagi Naqibxo'ja madrasasida, so'ng Buxoro madrasalarida tahsil olgan. Buxoro o'sha davrda Markaziy Osiyodagi eng yirik ilmiy va diniy markazlardan biri bo'lib, bu yerda Miriy tafsir, hadis, fiqh, mantiq, falsafa bilan bir qatorda, fors-tojik va turkiy mumtoz adabiyotni ham chuqur o'rgangan. Aynan shu muhit uning dunyoqarashi, badiiy didi va estetik qarashlarini shakllantirgan.

Adabiy ijodga erta kirib kelgan Miriy dastlabki g'azallarini Roqim va Shavqiy kabi shoirlar ijodiga ergashib yozgan. Bu bosqichda uning she'rlarida mumtoz lirikaning an'anaviy mavzulari – ishq, hijron, vafodorlik, taqdir, sabr-qanoat singari g'oyalar ustuvor bo'lgan.

Madrasani tamomlagach, Miriy shoir, donishmand va mutafakkir sifatida tanila boshlaydi. 1888-yilda Kalliqo'rg'on mavzesida imomlik va qozilik lavozimlarida faoliyat yuritadi. Bu lavozimlar unga xalq hayotini, jamiyatdagi adolatsizliklar, riyokorlik va mansabparastlikni bevosita kuzatish imkonini bergan. Keyinchalik bu holatlar uning lirik va hajviy asarlarida chuqur aks etadi.

Miriy ijodiy merosi va asarlar doirasi. Miriyning adabiy merosi nihoyatda serqirra. Uning mukammal devoni, ikkita bayoz (tanlangan she'rlar to'plami), bir qator epik va lirik asarlari bizgacha yetib kelgan. Shoir ijodining asosiy qismini dostonlar tashkil etadi.

Dostonchilik faoliyati. Miriy o'zbek adabiyotida dostonchilik an'alarini davom ettirgan, shu bilan birga, ularga yangi ijtimoiy-falsafiy mazmun olib kirgan ijodkor sifatida e'tirof etiladi.

¹ Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: O'qituvchi, 1976. — B. 54.



“Ra’no va Zebo” (1884) – fors tilida yozilgan bo‘lib, unda pok muhabbat, go‘zallik, sadoqat va insoniy kamolot masalalari romantik uslubda tasvirlanadi.

“Qissai Salim Javhariy” (1887) – tarixiy voqealar asosida yaratilgan bo‘lib, unda adolatli hukmdor, komil inson, ilm-ma’rifatga intilish g‘oyalari ilgari suriladi.

“Rustam va Suhrob” (1898) – Firdavsiy an‘anasiga suyanib yozilgan bo‘lsa-da, unda Miriyning o‘ziga xos talqini, axloqiy-falsafiy qarashlari mujassam.

“Majdiddin va Faxruniso” (1899) – sevgi va vafodorlik bilan bir qatorda, jamiyatdagi axloqiy muammolar, ayol sha’ni, ma’naviy poklik masalalarini yoritadi.

Bu dostonlarda adolatli tuzum, farovon hayot, inson qadr-qimmati, ma’rifatparvarlik g‘oyalari yetakchi o‘rin tutadi.²

Miriy “Gulnoma”, “Choynoma” kabi masnaviylarida hayot, inson, zamon, taqdir, ilm va jaholat muammolarini falsafiy-estetik ruhda yoritadi. Bu asarlar ramziy ifoda, didaktik yo‘nalish va badiiy obrazlar boyligi bilan ajralib turadi. Ularda sevgi, insonparvarlik, ma’rifat, axloqiy poklik targ‘ib qilinadi.

Tarjima va xattotlik faoliyati. Miriy nafaqat shoir, balki yetuk tarjimon va xattot sifatida ham tanilgan. U Firdavsiyning “Shohnoma” asarining bir qismini, Husayn Voiz Koshifiyning “Anvori Suxayliy” asarini she’riy yo‘lda turkiy tilga tarjima qilgan. Olimlar bu tarjimalarni nafaqat mazmuniy aniqligi, balki badiiy mukammalligi jihatidan ham yuksak baholaydilar. Miriy Navoiy, Jomiy, Sa’diy kabi buyuk shoirlarning ayrim asarlarini nasx va nasta’liq xatlarida ko‘chirgan. Bu hol uning xattotlik san’atini ham puxta egallaganidan dalolat beradi.

Lirika va hajviyot xususiyatlari. Miriyning g‘azallarida faqat ishqiy kechinmalar emas, balki jamiyatdagi ziddiyatlar, turmushdagi tartibsizliklar, nohaqliklar, inson qadrining poymol etilishi kabi masalalar ham aks etadi. U ishq mavzusini ijtimoiy-falsafiy mazmun bilan boyitadi. Shoir hajviy she’rlarida riyokor qozilar, poraxo‘r mirshablar, adolatsiz mansabdorlarni keskin tanqid qiladi. Bu jihat Miriy ijodini ma’rifatparvarlik va ijtimoiy tanqid ruhiga yaqinlashtiradi. Ochilmurod Miriy umrining oxirgi yillari og‘ir ijtimoiy va shaxsiy fojialar bilan kechgan. 1899-yilda dushmanlari tomonidan uyushtirilgan fitnalar oqibatida ikki o‘g‘lining o‘ldirilishi shoir ruhiyatiga nihoyatda og‘ir zarba bo‘ladi. Shu fojialardan so‘ng u 1899-yilda vafot etadi. Uning o‘limi XIX asr oxiri o‘zbek adabiy muhitidagi eng ayanchli voqealardan biri sifatida tilga olinadi.³

Miriy asarlarining qo‘lyozmalari hozirda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti hamda Samarqand davlat universiteti asosiy kutubxonasi fondlarida saqlanadi. Bu manbalar Miriy ijodini ilmiy o‘rganish, matnshunoslik va adabiy-tarixiy tadqiqotlar uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Miriy – o‘zbek mumtoz adabiyotida dostonchilik, tarjimachilik, hajviyot va lirika yo‘nalishlarini birlashtirgan, adolat, ma’rifat va insonparvarlik g‘oyalarini izchil targ‘ib qilgan yirik ijodkordir.

Sattor Jabbor o‘zining “Turkistonda yangi shoirlar” nomli kitobining ilk bo‘limini aynan Miriy ijodi bilan boshlab, uni Turkistondagi yangi adabiy tafakkur va jadid she’riyatining asoschisi sifatida baholaydi. Muallifning ta’kidlashicha, Turkiston tarixiy

² Bertels E. E. Izbrannye trudy. T. III. Voprosy literatury i iskusstva narodov Vostoka. — Moskva: Nauka, 1965. — B.60.

³ Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: O‘qituvchi, 1976. — B. 99.



taqdir taqozosi bilan turli ajnabiy hukumatlar tomonidan bo'linib tashlangan, aholining mutlaq ko'pchiligi turklar bo'lishiga qaramay, siyosiy parokandalik madaniyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Biroq Turkiston har doim ham bunday holda yashamagan.

Uyg'ur va Xorazmshohlar davridan keyin Chig'atoylar zamonida, ayniqsa Amir Temur va temuriylar hukmronligi yillarida Turkistonda milliy va madaniy yuksalishning yangi bosqichi yuzaga kelgan. Bu davrda san'at, ilm-fan va adabiyot yuksak darajada rivoj topgan, buyuk olimlar, mutafakkirlar va shoirlar yetishib chiqqan.⁴

Madaniy uyg'onish davrining eng porloq siymolaridan biri sifatida Alisher Navoiy e'tirof etiladi. Muallif Navoiyni nafaqat buyuk shoir, balki davlat arbobi, tarixchi, tilshunos, musiqashunos va ko'p qirrali olim sifatida tavsiflaydi. XV asrda Turkistonda porlagan turkiy madaniyat nafaqat mintaqaga, balki butun musulmon Sharqiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Samarqand, Buxoro, Qo'qon kabi shaharlar o'sha davrda Yevropaning Parij, Berlin, London singari markazlari darajasida ilm-fan va madaniyat o'choqlari bo'lgan. Turkiston madrasalarida turli musulmon mamlakatlaridan kelgan talabalar tahsil olgan.

XIX asrga kelib, Turkistonning siyosiy jihatdan parchalanishi, johil xonlar va amirlar tomonidan boshqarilishi, keyinchalik esa mustamlaka zulmi bu yurti chuqur tanazzulga olib keldi. Bu jarayon faqat iqtisod va siyosatni emas, balki adabiy hayotni ham izdan chiqardi. Natijada, adabiyotda jonli tafakkur so'ndi, shoirlarning aksariyati mumtoz adabiyotga quruq taqlid qilish bilan cheklanib qoldi. Muallif ana shu tarixiy sharoitdan kelib chiqib, eski chig'atoy adabiyotining emas, balki Turkistondagi "yangi shoirlar" fenomenining paydo bo'lishiga e'tibor qaratadi.

Muallifga ko'ra, Turkiston mustamlakaga tushganidan keyin uzoq muddat ruhiy tushkunlikda yashadi. Ammo XIX asr oxirlariga kelib, jamiyatda yangi ruh, yangi ijtimoiy ong shakllana boshladi. Bu davrning asoschisi sifatida u kattaqo'rg'onlik shoir Muhammad Hoji Murod o'g'li Miriyni e'tirof etadi. Miriy Buxoro va Samarqandda islom huquqi, fiqh va shariat ilmlarini egallagan, Samarqandda qozilik vazifasida faoliyat yuritgan. Shu bilan birga, u eski turkiy adabiyotni, ayniqsa Alisher Navoiy merosini chuqur bilgan va o'z ijodida unga tayangan.⁵

Miriy ruhiy-ma'naviy jihatdan Navoiyni o'ziga ustoz deb bilgan. Hatto u ayrim g'azallarida Navoiyni tushida ko'rib, undan ta'lim olayotganini ta'kidlaydi. "Navoiy qo'lim tutsa, qilsa madad", mazmunidagi misralar shoirning Navoiyga bo'lgan cheksiz sadoqatini ifodalaydi. Albatta, muhit va tarixiy sharoit Miriyga Navoiy darajasiga ko'tarilish imkonini bermagan, ammo muallif uni turk adabiyoti tarixida nomi "oltin harflar bilan yozilajak" ijodkor sifatida baholaydi. Chunki Miriy Turkistonda birinchilardan bo'lib Yevropa taraqqiyoti, fan-texnika yutuqlari, zamonaviy tafakkur ta'sirini anglab yetgan va uni she'riyatga olib kirgan.

Miriy ijodida ana shu yangicha ruh Turkiston madrasalari va ulamolari muhitida yangi ijtimoiy-adabiy harakat – keyinchalik "jadidchilik" deb nom olgan oqimning shakllanishiga turtki bo'lgan. Miriyga qadar shoirlar ko'proq Navoiy, Lutfiy, Bobur an'alariga ko'r-

⁴ Solihov S. J. O'zbek adabiyoti tarixi masalalari. — Toshkent: O'zdvashr, 1958. — B. 84.

⁵ Hasanov S. "Sab' ai sayyor" dostonining badiiy xususiyatlari. — Toshkent: Fan, 1993. — B. 91.



ko'rona ergashgan bo'lsalar, Miriy zamon o'zgarganini, XVI asr ruhi XIX asr ehtiyojlariga javob bermasligini chuqur anglagan.

U o'z davrida urushlar qilich va qalqon bilan emas, balki to'p va miltiqlar bilan olib borilayotganini, eski aravalar yonida poyezdlar paydo bo'lganini, jamiyatning butun hayoti tubdan o'zgarayotganini sezgan. Shu bois u millatning ozod va baxtli yashashi ilm-fan, madaniyat va milliy ongga bog'liq ekanini ilgari surgan. Milliy ruhni u eski turk adabiyotidan, ilm-fan va texnik taraqqiyotni esa Yevropa madaniyatidan izlagan. Ana shu qarashlar Miriy ijodida yangilikning tug'ilishiga asos bo'lgan.

Xulosa

Ushbu maqolada jamlangan ma'lumotlar Miriy shaxsiyati va ijodini XIX asr ikkinchi yarmidagi Turkiston madaniy hayotining ichki qonuniyatlari bilan bog'liq holda ko'rsatadi. Jamiyatning o'zi o'zgarayotgan, odamlarning hayot haqidagi tasavvuri, "zamonga qarash" usuli sekin-asta yangilanayotgan edi.

Miriy ana shu oqim tutashgan joyda ijod qildi: u an'anadan uzilmadi, lekin an'anani faqat takrorlash bilan ham cheklanib qolmadi. Bobning umumiy natijasi shundan iborat bo'ldiki, Miriyning badiiy qiyofasi aynan shu muvozanat – mumtozlikka sadoqat va davr ruhini sezish muvozanati orqali tushunarli bo'ladi.

Miriy hayoti va ilmiy-ma'rifiy tajribasi uning ijodiy dunyoqarashini belgilab berganini bob davomida ko'rish mumkin bo'ldi. Uning diniy-ilmiy bilim doirasi, madrasaviy muhitdagi tafakkur uslubi, turkiy va forsiy adabiy meros bilan muloqot tajribasi – bularning barchasi Miriy she'riyatining "tayanch qatlamlari"ni tashkil etadi.

Biroq Miriy faqat ilmli shoir emas, u ko'rgan-kechirgan jamiyat manzaralariga befarq bo'lmagan ijodkor hamdir.

Shu sababli uning lirikasi va hajviyotida hayot ziddiyatlari, jamiyatdagi nohaqlik, riyokorlik, mansabparastlik kabi holatlar ko'tariladi.

Bu yerda muhim jihat shundaki, Miriy tanqidni "shunchaki qarshi chiqish" sifatida emas, vijdoniy mezon sifatida olib boradi: shoirning pozitsiyasi ko'pincha axloqiy ogohlantirish va ma'naviy uyg'otish maqsadiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O'qituvchi, 1976. B. 54.
- 2 Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O'qituvchi, 1976. B. 99.
- 3 Solihov S. J. O'zbek adabiyoti tarixi masalalari. Toshkent: O'zdamnashr, 1958. B. 84.
- 4 Hasanov S. "Sab'ai sayyor" dostonining badiiy xususiyatlari. Toshkent: Fan, 1993. B.

91.